

---

# ALIMENTNI TO'LAMAGAN QARZDORLARGA CHORA KO'RILDI



## Alimentni to'lamagan qarzdorlarga chora ko'rildi

Oila muqaddas dargoh, unda dunyoga kelgan farzandlar himoyasiz bo'lib, eng avvalo ota-onaning parvarishi va ta'minotiga muhtoj bo'ladi.

Qonunchiligimizda, bolaning voyaga yetguniga qadar uning ta'minoti, ta'limi va tarbiyasi uchun bevosita ota-ona javobgarligi belgilab qo'yilgan.

Majburiy ijro byurosi So'x tuman bo'limi ish yurituvida bo'lgan aliment undirish bilan bog'liq ijro hujjati bo'yicha uzoq muddatdan buyon aliment qarzdorligini to'lashdan bo'yin tovlab kelayotgan qarzdorlarga nisbatan to'plangan hujjatlar MJtKning 47.4-moddasiga asosan Jinoyat ishlari bo'yicha So'x tumani sudiga taqdim qilindi.

Ma'muriy ishlar JIB So'x tuman sudida ko'rib chiqilib, qarzdorlar S.S. 4,9 mln. so'm, O.A. 10,9 mln. so'm, S.S. 12,0 mln. so'm miqdorida aliment pullarni to'lashdan bo'yin tovlab kelganligi sababli, sud qarzdorlarning 2 nafariga 15 sutka ma'muriy qamoq jazosi tayinlandi, 1 nafari esa aliment qarzini to'laganligi sababli ish yuritishdan tugatildi.

## MIB So'x tumani bo'limi

### [Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-05-12 11:23:52